



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARDAGI TASHABBUSKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH

Izzatilloyeva Sabina Ilhom qizi

Navoiy Innovatsiyalar universiteti

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi,
+998991855152, ubaydullayevimron@gmail.com*

O'zbekiston, Navoiy viloyati, Karmana tumani

Bahromova Dilnoza Farhodovna

Navoiy Innovatsiyalar universiteti talabasi

+998910894343, dbahromova98@gmail.com

O'zbekiston, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

Annotatsiya: Hozirgi kunda davlatimiz siyosati maktabgacha ta'limg-tarbiyani bolalar hayotining eng mugim bo'g'ini sifatida qaralayotgani sohada olib borilayotgan ishlarning keng ko'lamni va muhim ekanligidan dalolat beradi. Bu borada yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda, bolalarning tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko'nikmalarining tarkib topishiga alohida e'tibor berilmoqda. Maqolada maktabgacha yoshdag'i bolalarning tashabbuskorlik ko'nikmalarini bola hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida dolzarbliги asoslanadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning har tomonlama rivojlanishida tarbiyaning nazariy mazmuni, maktabgacha yoshdag'i bolaning shaxsiyatining rivojlanishi, ko'rib chiqilayotgan muammoning muhimligidan dalolat beradi. Ushbu maqolada iqlisodiy tarbiya asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarda tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirishning shart-sharoitlariga oid nazriy fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tashabbuskorlik, iqtisodiy tarbiya, ko'nikma, shaxsiy sifat, yetakchilik, mustaqillik, namoyon etish qobiliyati, qulay sharoit.

Maktabgacha ta'limg inson kamoloti yo'lidagi birinchi va eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolaning shaxsiy sifatlari, xususan, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik, muloqotchanlik singari qobiliyatları shakllanadi. Jahon tajribasida ham bolaning tashabbus ko'rsatishi — uning ongli rivojlanishi, faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirishi uchun asos hisoblanadi.

Shu munosabat bilan maktabgacha ta'limg tashkilotlarida bolalarda tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlanish bo'yicha tizimli, maqsadli va ilmiy yondashuv asosida ish olib borish muhimdir.

Tashabbuskorlik – keljak shaxsiyatining asosi

Tashabbuskorlik — bu bolaning:

Yangi g'oyalar taklif etishi,

O'z fikrini erkin ifoda qilishi,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Qiyin vaziyatlarda mustaqil yechim topa olishi,
O'ziga ishonchi borligi,
Raxbarlik sifatlariga ega bo'lishi demakdir.

Bu sifatlarning shakllanishi faqatgina ta'lim orqali emas, balki atrof-muhit, tarbiya, ota-onal va pedagogning yondashuvi orqali amalga oshadi. Pedagog bu jarayonda bolaning tashabbusini qo'llab-quvvatlovchi yetakchi bo'lishi zarur.

Bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirish usullari va vositalari

1. Psixologik qulay muhit yaratish

Bola o'zini erkin his qiladigan muhitda tashabbus ko'rsata oladi. Buning uchun:

Boshqa bolalar bilan raqobatlashmaslik,

Hafa qilmaslik, tanqid qilmaslik,

Qo'llab-quvvatlovchi so'zlar aytish kerak.

2. Loyihaviy faoliyat

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni guruhda ishlashga o'rgatish va loyiha asosida faoliyat tashkil etish:

Masalan: "Mening orzuimdagi bog'cha", "Tabiatni asraylik", "Kichik ixtirochilar" kabi mavzularda loyihalar.

Bola loyiha davomida ideyalar taklif etadi, material tanlaydi, natijani baholaydi.

3. Ijodiy o'yinlar va rolli sahnalar

"Kim nimani o'ylab topadi?", "Bugun sen rahbarsan", "Ertakni o'zgartir" kabi o'yinlar tashabbuskorlikni shakllantiradi.

Bolalar o'zlarini erkin ifoda etadilar va yangi g'oyalar bilan chiqadilar.

4. Mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish

Pedagog: Har bir bolaga tanlash imkonini beradi: o'yin, mashg'ulot, rang, o'yinchoq, roll.

"Qanday qilmoqchisan?", "Sening fikringcha nima yaxshi?" kabi savollar orqali bolaning tashabbusini rag'batlantiradi.

Tashabbuskorlikni shakllantirishda pedagogning o'mi

Pedagog boladagi tashabbusni ko'ra bilishi, his qilishi va uni qo'llab-quvvatlashi lozim. Buning uchun:

Bolani eshitish, uning fikriga hurmat bilan qarash, o'llab-quvvatlovchi munosabatda bo'lish, xatoga yo'l qo'ysa ham tanqid qilmaslik, erkin ifoda uchun sharoit yaratish juda muhim. Shuningdek, pedagog:

- Ijodiy yondashuvga ega bo'lishi;
- O'z-o'zini rivojlantirib borishi;
- Bolalarni ilhomlantirishi;
- Ilmiy va normativ asoslar berib borishi lozim.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da bolalarda muloqot, ijodkorlik, tashabbuskorlik salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan

Davlat maktabgacha ta'lif standartida ham bolada "tashabbuskorlik" ko'nikmasini rivojlantirish — ya'ni o'z fikrini aytish, qaror qabul qilish, guruhda yetakchilik qilish qobiliyatini shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Har bir bola tabiatan o'ziga xos, qiziquvchan va faol shaxs sifatida tug'iladi. Uning ichki olamidagi imkoniyatlarini rivojlantirish, ijodkorligini qo'llab-quvvatlash va tashabbuskorligini shakllantirish maktabgacha ta'lif tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Men ushbu sohada faoliyat yuritar ekanman, har bir bolaning mustaqil fikrlashini, yangicha yondashuvlar orqali o'z g'oyasini bildirishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qarataman.

Tashabbuskorlik nima va nega u muhim?

Tashabbuskorlik — bu bolaning yangi g'oyalar taklif qilish, qaror qabul qilishda faol ishtirok etish va o'zini namoyon qilish qobiliyatidir. Bunday ko'nikmalar bolaning hayotda mustaqil shaxs bo'lib kamol topishida muhim o'rinni tutadi. Tashabbuskor bola keyinchalik jamiyatda faol pozisiyaga ega bo'ladi, rahbarlik qobiliyatlariga ega bo'ladi va muammolarga yechim topa oladi.

Maktabgacha yoshda tashabbuskorlikni qanday shakllantirish mumkin?

Amaliyotimda men bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib boraman:

1. Erkin ijodiy faoliyat — Rasm chizish, maketlar yaratish, rolli o'yinlar orqali bolalar o'z fantaziyasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularga tayyor qoliplar emas, balki erkin ifoda uchun sharoit yaratib berish kerak.

2. Muhokama va muloqot — Bolalarga savol berish, ularning fikrini eshitish va bahslashish imkonini berish tashabbuskorlikka olib keladi. "Sen nima deb o'ylaysan?", "Bu muammoni qanday hal qilarding?" kabi savollar ularni faollashtiradi.

3. Liderlik o'yinlari va topshiriqlar — Guruhdagi kichik loyihalar, rollar taqsimoti orqali bolalarga mas'uliyat va tashabbusni his qilishga imkoniyat yaratiladi

4. Rahbat va qo'llab-quvvatlash — Har bir tashabbus, hatto u muvaffaqiyatli bo'lmasa ham, rag'batlantirilishi kerak. Men har doim bolalarning urinishlarini qo'llab-quvvatlashga intilaman. Bu ulardagi ishonchni mustahkamlaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarning tashabbuskorligini shakllantirish kelajakda ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxslar kamol topishi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Biz pedagoglar sifatida har bir bolaning ichki salohiyatini ochishga yordamchi bo'lishimiz, ularning g'oyalariga qulop tutishimiz va har bir qadamini rag'batlantirishimiz zarur. Chunki tashabbuskor bola — ertangi rivojlangan jamiyat asosidir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “ Ta’lim to‘g‘risida” 637-sonli 23.09.2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.”O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”O‘RQ 16.12.2019.
3. Vazirlar Mahkamasining Qarori “ Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 14.05.2019
4. Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 22.12.2020
5. F.R Qodirova, Sh.Q Toshpo‘latova, N.M.Kayumova va MN.A’zamova .”Maktabgacha pedagogika “.Toshkent-2019
6. Artikova M.B. Umumta’lim maktabi va oila hamkorligi asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dok. diss. –Namangan, 2021.

Veb-saytlar:

1. <https://fayllar.org/mundarija-kirish-v5.html?page>
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/netradicionnye-formy-provedeniya-zanyatiiv-detskom-sadu-netradicionnye>
3. <https://lex.uz/docs/-4646908>
4. [https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyev-yagona-y-limiz-tadbirkorlar-sonini-k-payti 08-01-2020.](https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyev-yagona-y-limiz-tadbirkorlar-sonini-k-payti-08-01-2020)

